

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil**

**MAXSUS PEDAGOGIKA VA MAXSUS PSIXOLOGIYA
FANNING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000-Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000- Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110300 –Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)

Fan/modul kodi MPMP1304		O‘quv yili 2025-2026	Semester 3	YeCTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maxsus pedagogika va psixologiya	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad - Talabalarda maxsus psixologiya va pedagogika, ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar psixologik tavsifi, ular bilan olib boriladigan psixo-korreksion jarayonining mazmuni hamda texnologiyalari borasida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatiga shaxsiy, motivatsion, kognitiv, amaliy tayyorligini ta’minlashdir. Fanning vazifalari - Maxsus pedagogika fanining yo‘nalishlari. Talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus korreksion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan holda to‘g‘ri tanlay olishi, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar nuqsonlarini tasniflash, maxsus adabiyotlarni tahlil etish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun didaktik materiallarni tanlashi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Kyoln universiteti (Germaniya)ning Maxsus ehtiyojlar bo'yicha ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 291- o'rinni egallagan bo'lib, maxsus pedagogika sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi - Kyoln universitetining Maxsus ehtiyojlar bo'yicha ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim ixtisosligi kursida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksiyalashning nazariyasi bilan bir qatorda, zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik- Maxsus ehtiyojlar bo'yicha ta'lim bo'yicha dasturi barcha o'qituvchilik kasblari uchun asosiy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan: o'qitish va ta'lim, baholash va diagnostika, maslahat, hamkorlik va maktabni rivojlantirish. Tanqidiy fikirlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish- Mazmun jihatidan o'qituvchilik kasbi uchun o'ziga xos bilim va ko'nikmalar				

o'zlashtiriladi, ular tarbiya va ta'limning markaziy muammolarini o'quvchilarning turli xil ishlash darajalari, resurslari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda hal qiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: Tiflopedagogika fanining tarixi, maqsad va vazifalari

Tiflopedagogika fanining maqsadi va vazifalari. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion, kompensasiya, adaptasiya, rehabilitasiya ishlari.

2-Mavzu: Ko'rishda nuqsoni bor bolalar ta'limini tashkil etishda tiflotexnik vositalarning ahamiyati bo'rtma – naqsh-nuqtali va yassi bosmali harflar, toshqalam, daftarlar, Brayl yozuvi uchun bosmali harf, tovushni yozuvchi va tovushni qaytadan tiklovchi asbob-uskunalar kompyuterda yirik bo'rtma – naqsh keskin farq qiladigan (kontrast) bosmali harf va Brayl bosmali harf (Brayl displey va Brayl klaviaturasi) kabi tiflo texnik vositalar va ularning ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar hayotidagi o'rni va ahamiyati.

3-Mavzu: Baryl tizimi yaratilish tarixi va olti nuqtali Brayl shrifti . Brayl tizimi va yaratilish tarixi Brayl shirifti Brayl texnik vositalari Brayl alifbosida 64 ta kompozitsiyaning yaratilishi.

4-Mavzu: Tiflodidaktika. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

5-Mavzu: Tiflopsixologiya. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomasi. Tiflopsixologiya va tiflopedagogika asoslari. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik va pedagogik tavsifnomasini o'rganish, bilm, tushunchalarga ega bo'lish.

6-Mavzu: Logopediya fanining tarixi, maqsad va vazifalari. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, tarixi .Og'ir nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Og'ir nutq nuqsonlarining turlari. Og'ir nutq nuqsonlarining tasnifi. Og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni.

7-Mavzu: Bolarda uchraydigan nutqiy nuqsonlar va ularning turlari.

Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari va ularning turlari , nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Bolalarda nutq nuqsonlarining tasnifi. Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni.

8-Mavzu: Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borishda logotexnik vositalarning ahamiyati. Nutqida nuqsoni bor bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarni olib borishda logotexnik vositalar va ularning ahamiyati.

9-Mavzu: Logopsixologiyaning nazariy va metodologik Asoslari. Logopsixologiya va Logopediya fanining asosi , nazariyasi va metodologik asoslari. Logopedik kamchilikka ega bolalar psixologiyasi va ta'lim tizimi.

10-Mavzu: Nutq kamchiligiga ega bolalarning bilish faoliyati. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv faoliyati , rivojlanishi, idrok , diqqat , xotira xususiyatlarini o'rganish.

11-Mavzu: Oligofrenopedagogika predmeti maqsadi va vazifalari. Oligofrenopedagogika faniga kirish oligofrenopedagogika fanining maqsadi va vazifalari haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish.

12-Mavzu: Aqli zaif bolalarning rivojlanishi, ularni o'rganish, o'qitish va tarbiyalash ob'ekti sifatida. Aqli zaif bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. Aqli zaif bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi.

13-Mavzu: Maxsus ta'lim tamoyillari Umumdidaktik va maxsus ta'lim tamoyillari (xususiy va maxsus tamoyillar) ni o'rganish bilm tushuncha ko'nikma va malakalarga ega bo'lish asmaliyotda qo'llay olshni o'rganish.

14-Mavzu: Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari . Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari Ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi.

15-Mavzu: Aqli zaif o'quvchilarning psixologo – pedagogik tavsifnomasi . Aqli zaif o'quvchilar, Autizm sindromli bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. Autizm sindromli bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Mavzu: Emotsional va ijtimoiy rivojlanishning maxsus ehtiyojlari sohasida pedagogika va didaktika asoslari

Mazmun jihatidan o'qituvchilik kasbi uchun o'ziga xos bilim va ko'nikmalar o'zlashtiriladi, ular tarbiya va ta'limning markaziy muammolarini o'quvchilarning turli xil ishlash darajalari, resurslari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda hal qiladi.

Mavzu: hissiy va ijtimoiy rivojlanishga yo'naltirilgan maktabda bolalar va yoshlar bilan ishlashda o'ziga xos pedagogika va didaktika.

Maslahat va hamkorlik ko'nikmalaridan tashqari, asosiy e'tibor ta'lim darajasi va rivojlanish diagnostikasi, o'rganish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va o'qitishning ichki farqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tiflopedagogika fanining tarixi, maqsad va vazifalari
2. Ko'rishida nuqsoni bor bolalar ta'limini tashkil etishda tiflotexnik vositalarning ahamiyati
3. Baryl tizimi yaratilish tarixi va olti nuqtali Brayl shrifti
4. Tiflodidaktika
5. Tiflopsixologiya. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomasi.
6. Logopediya fanining tarixi, maqsad va vazifalari.
7. Bolarda uchraydigan nutqiy nuqsonlar va ularning turlari.
8. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borishda logotexnik vositalarning ahamiyati.
9. Logopsixologiya nazarini va metodologik Asoslari
10. Nutq kamchiligiga ega bolalarning bilish faoliyati.
11. Oligofrenopedagogika predmeti maqsadi va vazifalari
12. Aqli zaif bolalarning rivojlanishi, ularni o'rganish, o'qitish va tarbiyalash ob'ekti sifatida
13. Maxsus ta'lim tamoyillari
14. Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
15. Aqli zaif o'quvchilarning psixologo – pedagogik tavsifnomasi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

	Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Tiflopedagogika fanining mavzu bahsi va vazifalari 2. Tiflopedagogika fanining rivojlanish tarixi 3. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar 4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalar faoliyati 5. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bilim, o'yin, mehnat faoliyati usullarini shakllantirish 6. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashning psixologik, pedagogik talablari 7. Ta'lim muassasasi defektologining faoliyati 8. Maktab yoshidagi bolalar mehnat tarbiyasi 9. Tarbiya metodlari. Aqliy tarbiyaning vazifalari. Axloqiy tarbiyaning vazifalari 10. Ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalash bosqichlari 11. Jismoniy tarbiyaning vazifalari va mazmuni 12. Estetik tarbiyaning vazifalari va mazmuni 13. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni oilaga tayyorlash 14. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning ilm-fan sohasidagi o'rni. Tiflotexnika uskunalarning tavsifnomasi Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • talaba Maxsus yordamga muhtoj bolalarga differensial va integrasiyalashgan ta'limni tashkil etish, mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korresion, kompensasiya, adaptasiya, reabilitatsiya ishlari, maxsus pedagogika fanining yo'nalishlari tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • talaba maxsus pedagogika va psixologiya fani bo'yicha o'rganilgan mavzular yuzasidan mustaqil xulosa va qaror qabul qila olish, o'zlashtirgan bilimlar asosida ijodiy fikrlay olish, fan bo'yicha olgan bilimni amalda qo'llay olish, fanning mohiyatini tushunish, hamda fan bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;

	talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan holda to'g'ri tanlay olishi, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar nuqsonlarini tasniflash, maxsus adabiyotlarni tahlil etish, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun didaktik materiallarni tanlashi bo'yicha malakaga ege bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihlar; - jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida belgilangan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar - Amirsaidova SH., Abidova N., Djalolova Z., Xamidova M. Maxsus psixologiya – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. - Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika - T.: G'offur G'ulom, 2004. - P.Po'latova, Z.Mamarajabova, Sh.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus pedagogika – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. - U.Fayziyeva, D.Nazarova, F.Qodirova Surdopedagogika-T.: "Sano standart" nashryoti, 2012. - Chicherina Y. Nurkeldiyeva D. Yakubjanova D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi//Darslik, Toshkent-2014. Qo'shimcha adabiyotlar - Головчиц.Л.- Дошкольная сурдопедагогика. М-2001. - Гонеев.А.- Основы коррекционной педагогики. М-2004. - Гейльман.И.Ф.- Специфические средства общения глухих : дактилология и мимика. М-2021. - Shomahmudova.R.- Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. T-1981. Axborot manbaalari http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

	2. http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 3. http://www.prezident.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. 4. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali. 5. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti. 6. https://studienorientierung.uni-koeln.de/studienangebot/index_ger.html?app=true&id=111
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sul: L.Xayitov–Qo‘qon DU “Maxsus pedagogika“ kafedra mudiri, dotsent,p.f.b.f.d (PhD) I.Haydarov – Qo‘qon DU, Pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika“ kafedra o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: M.Kodirov – TDPU “Maxsus pedagogika” fakulteti dekan o‘rinbosari, v.b dotsent, p.f.b.f.d (PhD)